

YANGI OCHILGAN HOLATLAR TUFAYLI JINOYAT ISHINI QAYTA BOSHlashNING PROTSESSUAL TARTIBI

Mardanova Iroda Husniddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat qonunchiligini

qo'llash nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi magistranti

E-mail: irodamardanova1808@gmail.com,

irodamardanova1808@gmail.com

Annotatsiya

Jinoyat protsessida yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash nazorat tartibida ish yuritishga o'xshash mustaqil, bir vaqtning o'zida qo'shimcha bosqich hisoblanadi. Bu bosqichning yordamida birinchi va yuqori instansiya (apellyatsiya, kassatsiya) sudlarining xatolari, jinoiy suistemolliklar aniqlanadi va bartaraf etiladi. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatligini tekshirish bilan hukmlarni bekor yoki o'zgartirish mahkumning ahvolini yengillashtirsa, yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishga hech qanday muddat belgilanmaydi. Yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Kalit so'zlar: shikoyat, murojaat, ma'lum bo'lgan holat, inson manfaati, yangi ochilgan, ma'lum bo'lmagan, sud xatolari

Jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar, shuningdek himoyachilar va vakillar (ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar) davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining passiv obyektlari emas, balki tegishli huquq va burchlarga ega bo'lgan huquq subyektlaridir. Yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash sabablari, asoslari va tartibiga ko'ra Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish huquqiga prokuror, fuqarolarning murojaatlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining, jamoat birlashmalarining xabarlari, ommaviy axborot vositalarining ma'lumotlari, shuningdek boshqa jinoyat ishlari bo'yicha bevosita tergov yuritish yoki sudga ko'rib chiqish jarayonida olingan ma'lumotlar yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atishga sabab bo'ladi.

JPK 522-moddasining 1–3-bandlarida nazarda tutilgan holatlardan biri bo'yicha yetarli ma'lumotlar bo'lsa, prokuror jinoyat ishini qo'zg'atadi, keyin ish umumiy tartibda tergov qilinadi va ko'rib chiqiladi. Prokuror yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atishga asos yo'q deb hisoblasa, o'z qarori bilan ish qo'zg'atishni rad etadi. Bu haqda ish qo'zg'atishni so'rab iltimosnoma bilan murojaat qilgan shaxsga xabar berilib, unga qaror yuzasidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish huquqi tushuntiriladi.

Yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlashga quyidagilar asos bo'ladi:

- 1) jabrlanuvchi yoki guvohning bila turib yolg'on ko'rsatuv yoxud ekspertning bila turib yolg'on xulosa bergani, shuningdek ashyoviy dalillar, tergov hamda sud harakatlari bayonnomalari va boshqa hujjatlar soxta ekanligi yoki bila turib yolg'on tarjima qilingani qonunga xilof va asossiz hukm yoki ajrim (qaror) chiqarilishiga sabab bo'lganligi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;
- 2) ish bo'yicha tergov o'tkazgan surishtiruvchi yoki tergovchi yoxud tergovning borishi ustidan nazorat qilgan prokuror tomonidan qonunga xilof va asossiz hukm yoki ajrim (qaror) chiqarishga olib kelgan jinoiy suiiste'mollarga yo'l qo'yilgani sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;
- 3) mazkur ishni ko'rish chog'ida sudyalarning jinoiy suiiste'mollarga yo'l qo'ygani sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanganligi;
- 4) hukm yoxud ajrim (qaror) chiqarish chog'ida sudga ma'lum bo'lmagan, o'z holicha yoki ilgari aniqlangan holatlar bilan birga mahkumning aybsizligidan yoxud u hukm etilganiga nisbatan og'irlik darajasi bo'yicha

boshqa jinoyat sodir etganligidan yoxud oqlangan yoki ishi tugatilgan shaxsning aybdorligidan dalolat beradigan boshqa holatlar.

Yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ayblov hukmini mahkumning manfaatini ko'zlab qayta ko'rib chiqish hech qanday muddatlar bilan cheklanmaydi. Mahkumning o'limi uni reabilitatsiya qilish maqsadida ish yuritishni yangi ochilgan holatlar munosabati bilan qaytadan boshlashga to'sqinlik qilmaydi. Oqlov hukmini yoki ishini tugatish haqidagi sudning ajrimini (qarorini) qayta ko'rish, shuningdek sudning ayblov hukmini va ajrimini (qarorini) jazoning yengilligi yoki og'irroq jinoyatga doir qonunni qo'llash zarurligi sababli qayta ko'rish faqat Jinoyat kodeksining 64- moddasida belgilangan javobgarlikka tortish muddati davomida va yangi holatlar ochilgan kundan e'tiboran bir yildan kechiktirmasdan amalga oshirilishi mumkin. Yangi holatlar ochilgan kun quyidagicha hisoblanadi:

1) JPK 522-moddasining 1–3-bandlarida nazarda tutilgan hollarda – soxta dalillar taqdim etganlikda, bila turib noto'g'ri tarjima qilganlikda yoki ish bo'yicha tergov yuritishda yoxud ishini sudda ko'rishda jinoiy suiiste'mol sodir etganlikda aybli shaxslarga nisbatan chiqarilgan hukm qonuniy kuchga kirgan kun;

2) JPK 522-moddasining 4-bandida nazarda tutilgan hollarda – yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash to'g'risida prokuror qaror chiqargan kun.

Yangi ochilgan holatlar yuzasidan tergov o'tkazish qonun bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'ladigan holatlarni aniqlash bilan cheklanadi. Bunda JPKda nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilingan holda so'roq qilish, ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish va boshqa zarur tergov harakatlari o'tkazish mumkin.[1] Ish yuritishni qaytadan boshlashga asoslar mavjud bo'lganda prokuror ishini sudga yuboradi. JPK 522-moddasining 1–3-bandlarida nazarda tutilgan hollarda ish sudga prokurorning protesti hamda qonuniy kuchga kirgan hukmning nusxasi bilan, o'sha moddaning 4-bandida nazarda tutilgan hollarda esa, tergov materiallari bilan birgalikda yuboriladi. Ish yuritishni qaytadan boshlash uchun asoslar bo'lmasa, prokuror o'z qarori bilan ishini tergov qilishni tugatadi. Bu haqda manfaatdor shaxslarga xabar beriladi va ularga qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish huquqi tushuntiriladi.[2] Shunday qilib, yangi ochilgan holatlarni tekshirish prokurorning qattiq nazoratidadir. Aksincha bo'lishi ham mumkin emas, chunki amaliyotda yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash ko'p uchramaydi. Bu ish yuritishni qaytadan boshlash asoslarini puxta tekshirish va bunday asoslar qay tariqa tekshirilayotganini nazorat qilishni talab etadi.

Shu o'rinda Rossiya, Ukraina va Qozog'iston davlatlarida yangi ochilgan holatlar uchun belgilangan muddatlarni ko'rib o'tamiz.

Rossiya jinoyat protsessual kodeksi 414 - modda

Ayblov hukmini yangi ochilgan holatlar bo'yicha mahkum foydasiga qayta ko'rib chiqish hech qanday muddat bilan cheklanmaydi.

Mahkumning vafoti uni axloq tuzatish maqsadida yangi ochilgan holatlar bo'yicha jinoyat ishini qayta boshlashga to'sqinlik qilmaydi.

Oqlov hukmini, ajrimni, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarorni, ayblov hukmini jazoning yengilligi yoki mahkumga nisbatan o'ta og'ir jinoyat to'g'risidagi jinoyat to'g'risidagi qonunni qo'llash zarurati bilan bog'liq holda qayta ko'rib chiqishga faqat sud majlisida ruxsat etiladi. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 78-moddasida belgilangan jinoiy javobgarlik uchun da'vo muddati va yangi ochilgan holatlar aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay[3].

Yangi ochilgan holatlar aniqlangan kun:

Yolg'on ko'rsatuvlar berganlikda, yolg'on dalillar taqdim etganlikda, noto'g'ri tarjima qilganlikda yoki jinoyat ishini yuritish jarayonida sodir etilgan jinoiy harakatlarda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan hukm, ajrim, sud qarori qonuniy kuchga kirgan sana;

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudining ushbu jinoyat ishida qo'llaniladigan qonunning Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga mos kelmasligi to'g'risidagi qarori kuchga kirgan sana;

Inson huquqlari bo'yicha Evropa sudining Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya qoidalari buzilganligi to'g'risidagi qarori kuchga kirgan sana;

yangi holatlar tufayli ish yuritishni davom ettirish zarurligi to'g'risidagi xulosa prokuror tomonidan imzolangan sana [4].

Qozog'iston jinoyat protsessual kodeksi 501 - modda.

Ish yuritishni qayta boshlash muddatlari

1. Sudlanganlik yoki musodara qilish haqidagi qarorni ko'rib chiqish

yangi ochilgan holatlar bo'yicha sud hukmi chiqarilgunga qadar mulk

mahkumning, oqlanganning nafaqasi hech qanday muddat bilan cheklanmaydi.

2. Mahkumning o'limi ish yuritishni qayta boshlashga to'sqinlik qilmaydi.

reabilitatsiya qilish uchun yangi ochilgan holatlar.

3. Oqlov hukmini ko'rib chiqish, ishni tugatish to'g'risidagi qaror va

shuningdek, vaziyatni yomonlashtiradigan asoslar bo'yicha ayblov hukmini qayta ko'rib chiqish mahkumga

jinoiy javobgarlikka tortish uchun da'vo muddati davomidagina ruxsat etiladi javobgarlik va yangi holatlar

aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay.

Yangi holatlar aniqlangan kun hisoblanadi:

1) shaxslarga nisbatan hukm, qaror qonuniy kuchga kirgan sana;

Yolg'on guvohlik berishda, noto'g'ri tarjima yoki tergov jarayonida sodir etilgan jinoiy harakatlarda ishni ko'rib chiqish.

2) Respublika Konstitutsiyaviy Kengashining yakuniy qarori qabul qilingan kun

Qozog'iston qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni konstitutsiyaga zid deb topish to'g'risida;

3) prokuror tomonidan tekshirish natijalari bo'yicha xulosa tuzilgan kun [5].

Ukraina jinoyat protsessual kodeksi 461- modda

1. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha sud qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza muddati uch oy.

2. Oqlov hukmining yangi ochilgan holatlari bo'yicha ko'rib chiqish uchun faqat qonunda belgilangan da'vo muddati davomida ruxsat etiladi.

3. Shaxsning og'irroq jinoyat sodir etganligini tasdiqlovchi holatlar mavjud bo'lsa

u sudlanganidan keyin ham jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Da'vo muddati davomida yangi ochilgan holatlar tufayli og'irroq jinoyat uchun javobgarlikka tortish ko'rib chiqilishi kerak.

4. Agar mahkumning aybsizligini tasdiqlovchi holatlar mavjud bo'lsa yoki

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilganda, yangi ochilgan holatlar tufayli sud qarorini ko'rib chiqish shartlari cheklanmaydi.

Yangi ochilgan holatlar tufayli hukmni qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza topshirilishi mumkin:

1) 459-moddasi uchinchi qismining 1-bandida nazarda tutilgan asosda Ukraina Konstitutsiyaviy sudining tegishli qarori - rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab o'ttiz kun ichida

2) 459-moddasi uchinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha xalqaro sud qarori uning foydasiga chiqarilgan shaxs tomonidan

yurisdiksiyasi Ukraina tomonidan tan olingan muassasa, o'ttiz kundan kechiktirmay bunday shaxs ushbu qarorni olganligini bilgan yoki bilishi mumkin bo'lgan kun yakuni;

3) 459-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha

Kodeksning - jinoyat protsessida hukm chiqarilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida [6].

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi

2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT PROTSSESI Toshkent – 2013

3. Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rish institute takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida 12.01.2021-yildagi O'RQ 664 - son

4. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/

5. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231>

6. http://search.ligazakon.ua/l_doc2.nsf/link1/T124651.html